

## “Navoiyuran” davlat korxonasi Bosh direktorining

### MUROJAATI

#### **Hurmatli xodimlar, korxonamiz hamkorlari, vatandoshlar!**

Bizning asosiy qadriyatlarimiz halollik, shaffoflik va O‘zbekiston hukumati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murossasiz muhitni yaratishga korxonaning munosib hissasini qo‘shishdir.

Biz dunyoni quvvatlantiradigan energetik manbaning ishlab chiqaruvchisi sifatida davlat va jamiyat oldida katta mas‘uliyatga egamiz. Biz uran ishlab chiqarishni jamiyat va kelajak avlodlar manfaati uchun yuksak axloqiy standartlarga rioya qilgan holda halollik bilan olib borishimiz juda muhimdir. Shu sababli halollikni bizni barqaror o‘shirimizni ta‘minlaydigan yetakchi tamoyil sifatida qabul qilaylik.

Shaffoflik, ochiq muloqot va hisobdorlikni rivojlantirish orqali biz manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlaymiz.

Biz tizimda barcha darajadagi korrupsiyaga qarshi kurashishimiz kerak. Korxonadagi korrupsiyani aniqlash va hal qilishdagi hushyorlik bizning nufuzimiz va sanoat farovonligimizni himoya qilish uchun juda muhimdir.

Ekologik nazorat, ijtimoiy himoya va samarali boshqaruvning yuqori standartlariga moslashishga intilishimiz zarur. Biz barqaror rivojlanishni birinchi o‘ringa qo‘yamiz, atrof-muhitga ta‘sirimizni minimallashtiramiz, xodimlarning salomatligi va xavfsizligini qadrlaymiz.

“Navoiyuran” davlat korxonasini korrupsiyadan holi tizimga aylantirishga hissa qo‘shadigan har bir xodim va fuqaroni qo‘llab-quvvatlashga tayyormiz hamda bu boradagi tashabbuslarini ijobiy qarshi olamiz.

Shu nuqtai nazardan, biz korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan takliflar, arizalar yoki shikoyatlari bo‘lgan har bir xodim, korxonamiz hamkorlari va jamoatchilikni befarq kuzatuvchi bo‘lib qolmasdan, balki korxonamizning rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi, [@navoiyuran\\_antikor\\_bot](#) –telegram boti, [info@navoiyuran.uz](mailto:info@navoiyuran.uz) va ishonch telefoniga (79) 507-00-55) xabar berish orqali o‘zining korxonamizda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga nisbatan mutlaqo toqatsizlik siyosatiga nisbatan faol pozitsiyani namoyish etishga chaqiramiz.

Biz har bir xabar belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishiga va agar korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi haqidagi xabar o‘z tasdig‘ini topgan taqdirda, aybdor shaxslar adolatli jazoga tortilishiga kafolat beramiz.

Men har biringizni korxonamizning qadriyatlarini qabul qilishga, korrupsiyaga qarshi murossasiz bo‘lishga chaqiraman. Korrupsiyadan xoli yorqin va barqaror kelajak sari sayohatimizga sodiqligingiz uchun tashakkur.

Hurmat bilan,

**“Navoiyuran” davlat korxonasi**

**Bosh direktori**

**Dj.S.Fayzullayev**

## **“Навоийуран” давлат корхонаси Бош директорининг МУРОЖААТИ**

### **Хурматли ходимлар, корхонамиз ҳамкорлари, ватандошлар!**

Бизнинг асосий кадриятларимиз ҳалоллик, шаффофлик ва Ўзбекистон ҳукумати томонидан коррупцияга қарши курашиш бўйича амалга оширилаётган ишларни қўллаб-қувватлаш, жамиятда коррупцияга қарши мурасасиз муҳитни яратишга корхонанинг муносиб ҳиссасини қўшишдир.

Биз дунёни қувватлантирадиган энергетик манбанинг ишлаб чиқарувчиси сифатида давлат ва жамият олдида катта масъулиятга эгамиз. Биз уран ишлаб чиқаришни жамият ва келажак авлодлар манфаати учун юксак ахлоқий стандартларга риоя қилган ҳолда ҳалоллик билан олиб боришимиз жуда муҳимдир. Шу сабабли ҳалолликни бизни барқарор ўсишимизни таъминлайдиган етакчи тамойил сифатида қабул қилайлик.

Шаффофлик, очиқ мулоқот ва ҳисобдорликни ривожлантириш орқали биз манфаатдор томонлар ўртасида ишончни мустаҳкамлаймиз.

Биз тизимда барча даражадаги коррупцияга қарши курашишимиз керак. Корхонадаги коррупцияни аниқлаш ва ҳал қилишдаги ҳушёрлик бизнинг нуфузимиз ва саноат фаровонлигимизни ҳимоя қилиш учун жуда муҳимдир.

Экологик назорат, ижтимоий ҳимоя ва самарали бошқарувнинг юқори стандартларига мослашишга интилишимиз зарур. Биз барқарор ривожланишни биринчи ўринга қўямиз, атроф-муҳитга таъсиримизни минималлаштирамиз, ходимларнинг саломатлиги ва хавфсизлигини қадрлаймиз.

“Навоийуран” давлат корхонасини коррупциядан ҳоли тизимга айлантиришга ҳисса қўшадиган ҳар бир ходим ва фуқарони қўллаб-қувватлашга тайёрмиз ҳамда бу борадаги ташаббусларини ижобий қарши оламиз.

Шу нуқтаи назардан, биз коррупция билан боғлиқ бўлган таклифлар, аризалар ёки шикоятлари бўлган ҳар бир ходим, корхона ҳамкорлари ва жамоатчиликни бефарқ қўзғатувчи бўлиб қолмасдан, балки корхонанинг расмий веб-сайтидаги “Коррупцияга қарши курашиш” бўлими, [@navoiyuran\\_antikor\\_bot](https://t.me/navoiyuran_antikor_bot) – телеграм боти, [info@navoiyuran.uz](mailto:info@navoiyuran.uz) ва ишонч телефони (79) 507-00-55) хабар бериш орқали ўзининг корхонада амалга оширилаётган коррупцияга нисбатан мутлақо тоқатсизлик сиёсати нисбатан фаол позицияни намойиш этишга чақирамиз.

Биз ҳар бир хабар белгиланган тартибда кўриб чиқилишига ва агар коррупциявий ҳуқуқбузарлик содир этилганлиги ҳақидаги хабар ўз тасдиғини топган тақдирда, айбдор шахслар адолатли жазога тортилишига кафолат берамиз.

Мен ҳар бирингизни корхонамизнинг кадриятларини қабул қилишга, коррупцияга қарши мурасасиз бўлишга чақираман. Коррупциядан холи ёрқин ва барқарор келажак сари саёҳатимизга содиқлигингиз учун ташаккур.

Хурмат билан,

**“Навоийуран” давлат корхонаси**

**Бош директори**

**Дж.С.Файзуллаев**